

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar haqida**

**MA’LUMOT**

**I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilishi to‘g‘risida umumiyl axborot.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son , “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir bиринчи navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirining 2023-yil 1-fevraldagi 14-son buyrug‘ga asosan vazirlikning markaziy apparatida 3 nafar shtat birlikdan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo‘limi hamda hududdiy bo‘linmalarda jami 14 ta shtat birligidan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimlari tashkil etildi.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo‘limi va tarkibiy bo‘linmalarni tashkil etish va belgilangan tartibda malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining vacancy.argos.uz sayti orqali bosh mutaxassis nomzodlar o‘rtasida tanlovlardan o‘tkazilib, tanlov natijasida bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassis lavozimlariga, shu bilan birgalikda 14 ta hududiy bo‘linmalarda ham bosh mutaxassis lavozimiga xodimlar ishga qabul qilindi.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, tarkibiy va uning hududiy bo‘linmalari faoliyati hamda sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganib chiqildi, tizimdagisi mavjud korruption holatlar va ularning kelib chiqish sabablari hamda muammolari aniqlandi. Ularni bartaraft etish maqsadida, vazirlik tomonidan inson omilini qisqartirish, korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqishda ma’nан eskirgan hisob-kitoblarni amalga oshirilishi hamda abonentlarni yagona billing elektron tizimi orqali hisobini yuritish;

sanitar tozalash xizmatlari uchun aholi tomonidan to‘lovlarni onlays amalga oshirish imkoniyatini yaratish maqsadida, O‘zbekiston pochtasi, “Uzpaynet” MChJ qo‘shma korxonasi, “National Engineering Technologies” MChJ (MBANK – to‘lov tizimi), PAYME, UPAY va CLICK bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi;

bugungi kunda maishiy chiqindilar uchun majburiy to‘lovlarni undirish maqsadida zamonaviy rusumdagisi jami **1972 ta uchtasi birda to‘lov termoprinterlari** xarid qilindi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldagi “Tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2750-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan **11 turdag‘i** ruxsat etuvchi hujjatlar Davlat xizmatlari markazlari va Yagona

interaktiv davlat xizmatlari portali hamda “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali elektron tarzda rasmiylashtirilmoqda.

4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 202-sun qarori ijrosini ta‘minlash, kompensatsiya to‘lovchi sub’ektlarni to‘liq qamrab olish, kompensatsiya to‘lovlarining to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida undirilishini nazorat qilish hamda inson omilini kamaytirish maqsadida **“ECOFUND” elektron dasturi** amaliyotga joriy etib kelinmoqda.

5. Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etiladigan atrof muhitga ta’sirni baholash hamda Atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalar tashlamalari, oqovalari manbalarini, chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishini normativ hujjatlari korruption holatlarni oldini olish hamda Tadbirkorlik sub’ektlariga qulaylik yaratish maqsadida davlat ekologik ekspertizasi o‘tkazishning elektron tizimi (eco-service.uz) joriy etilgan bo‘lib Yu ushbu tizimni takomillashtirish bo‘yicha ishlar amalgalashirilmoqda.

6. Ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ish hujjatlari **“E-ma’muriy ish”** tizimi orqali vazirlik tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan 1440 nafar davlat inspektorlari uchun **580 dona** maxsus planshetlarda elektron tarzda rasmiylashtirilmoqda. Shu bilan bирgalikda davlat inspektorlarning korruption xavf-xatar darajalarini minimallashtirish maqsadida 2023-yilda esa **250 dona** maxsus planshetlar xarid qilib olindi.

7. Soha xodimlarini huquqiy savodxonligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va me’yorlari bo‘yicha bilim berish, korrupsiyanı oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yetkazish maqsadida “Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida o‘quv-seminar va malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Hozirgi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiya qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sun qarori ijrosini ta‘minalashga qaratilgan chora-tadbirlar amalgalashirilmoqda. Mazkur qaror bilan Davlat ekoliya qo‘mitasi tomonidan sohada amalgalashirilayotgan ishlarni yagona mezon asosida baholash tizimi joriy etilib, bunda Baholash **5 ta yo‘nalish 29 ta maxsus indikatorlar** asosida **“E-Anticor.uz”** elektron platformasi orqali amalgalashirilmoqda.

## **II. Siyosat va tartib-taomillar.**

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiya harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlash hamda tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish maqsadida ichki buyruq asosida

quyidagi **Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan 14 ta ichki idoraviy hujjatlar** qabul qilindi.

Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob ahloq qoidalari”, “Korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalari buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamenti”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi “Davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi, hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi to‘g‘risida”gi Nizomlari, “Ekologiya vazirligi va tizim tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi”, “Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomasi”, “Ekologiya vazirligi va tizim tashkilotlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlar (murojaatlar)ni qabul qilish va ko‘rib chiqish Tartibi”, “Ekologiya vazirligi va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o‘rganish bo‘yicha Tartib”, “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Tartibi” tasdiqlanib, mazkur me’yoriy hujjatlar asosida chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydag‘i PQ-171-son qaroriga muvofiq, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2023-yil 26-iyundagi 165-son buyrug‘i bilan **Davlat ekologik nazorati va ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash hamda korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash va kamaytirish choralarini ko‘rish maqsadida tabiatni muhofaza qilish sohasida “sirli mijoz” instituti** joriy etildi va **69 ta holatda** jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi, xizmat ko‘rsatish vaqtida muomala madaniyatiga rioya etilishi va xodimning korruption holatlarga moyilligi o‘rganib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag‘i “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-soni Farmoni ijrosini ta’minlash borasida “Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” joriy etildi.

Unga ko‘ra, korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun xabarlar vazirlikning markaziy apparatiga quyidagi:

Prezident virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>);

elektron pochta – info@eco.gov.uz,

ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebook rasmiy sahifasi (<http://Facebook.com/ecogovuz>),

telegram messenjeridagi (<https://t.me/ecogovuz>);

ishonch telefon raqamlari (+998712071107 yoki 1157);

telegram boti (@ECOanticor\_bot ) **aloqa kanallari** orqali yo‘lga qo‘yildi.

Budget mablag‘lari sarflanishi jarayonining **ochiqligini ta’minlash** maqsadida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan

amalga oshirilgan davlat xaridlari haqidagi ma'lumotlar rasmiy veb-saytga ([eco.gov.uz](http://eco.gov.uz)) joylashtirilib borilmoqda.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash.**

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning Xaritasi ishlab chiqildi, xaritaga muvofiq vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq **jami bo'lib 8 ta sohaviy yo'naliishlar** bo'yicha **128 ta** funksiyalarni, shu jumladan vazirlik bo'yicha **75 ta** funksiyalarni o'z ichiga qamrab olindi, shu bilan birgalikda vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalarning hamda tumanlar (shaharlar)dagi **hududiy bo'limlarining 53 ta funksiyalarini** amalga oshiradi.

Mazkur funksiyalardan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarida korrupsiya xavfiga **eng ko'p moyil bo'lgan 38 ta funksiya va lavozimlar ro'yxati** shaklantirildi. Mazkur moyil funksiya va lavozimlar bo'yicha xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.**

#### **a). Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaz qilish davlat qo'mitasi raisining 2022 yil 28 sentyabrdagi 450-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" talablari asosida markaziy apparat, viloyat hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida jami **1058 nafar** xodimlar tomonidan deklarasiya arizalari to'ldirildi, **4 nafar** xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi aniqlandi va belgilangan tartibda tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

#### **b). Korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritish**

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilotning xo'jalik shartnomalariga kiritish bo'yicha, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma'lumotlar amalga oshirilib borilmoqda.

#### **v). Kontragentlarni tekshirish**

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, uning hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnomalar asosida ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Joriy yili davomida **583 ta kontragentlar bilan shartnoma tuzilgan**, shundan **246 ta elektron do'kon, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar 319 ta, eng yaxshi takliflarni tanlash 6 ta**, boshlang'ich narxini pasaytirish uchun o'tkazilgan auksion 9 ta,

cooperation.uz xarid orqali 3 tani tashkil etadi. Tender savdolari o‘tkazilmagan. 583 ta xo‘jalik shartnomalariga ijobiy xulosa berildi.

**g). Ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlarni tekshirish**

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida tashkilot tizimiga **84 nafar** xodimlar ishga kirish uchun nomzodlar ustidan tekshiruvlar o‘tkazilib, **80 nafari ijobiy, 4 nafari salbiy** xulosalar berib borildi.

## **V. Ta’lim va kommunikatsiya.**

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tomonidan, 2023-yil uchun xodimlarning malakasini oshirish maqsadida o‘quv reja va dasturlar qayta ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” yo‘nalishi bo‘yicha “Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlari” malakasini oshirish kursining o‘quv Dasturi” tasdiqlandi.

Mazkur Dasturda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha dars soatlari kiritildi.

Jumladan:

2023-yil uchun tasdiqlangan malaka oshirish reja-jadvaliga asosan Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi bilan hamkorlikda joriy yilda markaziy apparat, 14 ta hududiy boshqarmalar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (qo‘riqxonalar) hamda analitik laboratoriyadan jami **670 nafar** xodimlariga “Korruptsiyaga qarshi kurashish” mavzusida o‘quv soatlari o‘tkazildi.

Bundan tashqari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2023-yil 18-sentabrdagi 292-sun buyrug‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan hamkorlikda joriy yil 28-29-sentabr kunlari “Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat” o‘quv kursida (12 soatlik o‘quv dasturi asosida) Ekologiya vazirligi markaziy apparati, vazirlik huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda vazirlikning va hududiy bo‘linmalaridan **47 nafar xodimlari** malakasi oshirildi va maxsus sertifikatlar berildi.

## **VI. Korruptsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbazarliklar to‘g‘risida.**

2023-yilda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tizimida **jami 8 nafar**, ya’ni **Navoiy viloyatida 3 nafar, Xorazm viloyatida 2 nafar, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlari hamda Toshkent shaharida 1 nafardan** mansabdor xodimlar tomonidan jinoyat sodir etilgan bo‘lib,

mazkur xodimlar bo‘yicha bugungi **7 nafar** xodimlarga nisbatan sud hukmi chiqarilgan,

**1 nafari** bo‘yicha tergov harakatlari tugatilib, sud jarayonilari amalga oshirilmoqda.

Mazkur xodimlarning **7 nafari** (2022 yilda 7 nafar) ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va **1 nafari** (2022 yilda 3 nafar) “Toza hudud” davlat unitar korxonasi tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Jinoyatlarning **5 ta holatda (6 nafar xodim)** korruption turdagji jinoyatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Vazirlik tizimida jinoyatchilikni kamaytirish va uni oldini olish maqsadida, hududlarda profiliktik tadbirlar va kompleks o‘rganish ishlari olib borilmoqda. O‘z navbatida joriy yil davomida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A.Abduxakimov rahbarligida **huquqni muhofaza qilish organlaridan kelgan taqdimnomalar** hamda **Surxondaryo, Xorazm, Navoiy, Toshkent, Namangan va Buxoro viloyatlarida** o‘tkazilgan kompleks o‘rganish natijalari yuzasidan iyun va avgust oylarida vazirlikning kengaytirilgan yig‘ilishida muhokoma qilinib, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanilib, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

### **Kelib tushgan murojaatlar:**

2023-yil davomida Ekologiya vazirligi xodimlari xatti-harakatlaridan norozi bo‘lib, **jami 80 ta murojaat** kelib tushgan shundan Prezident virtual qabulxona va veb-sayt orqali 29 ta, ishonch telefoni orqali 17 ta, yozma murojaat 28 ta, elektron pochta orqali 6 tani tashkil etadi. Mazkur murojaatlarning 78 tasi to‘liq o‘rganilib, belgilangan tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborildi. 2 ta murojaat yil yakunida kelib tushganligi sababli o‘rganish jarayoni davom etmoqda. Murojaatlarning **5 tasida** (shundan 3 tasi bir xil mazmundagi) bir qancha xato va kamchilik hamda qonunbuzilish holatlari mavjudligi sababli, o‘rnatilgan tartibda xizmat tekshiruv o‘tkazilib, tekshiruv natijasida to‘plangan barcha hujjatlar huquqiy baho berish uchun Bosh prokuraturaga yuborildi.

### **O‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari:**

Joriy yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo‘limi tomonidan **23 ta xizmat tekshiruvlari** o‘tkazildi, xizmat tekshiruvlari natijasida **9 ta holat bo‘yicha jinoiy alomatlar mavjudligi** sababli, prokuratura organlariga yuborildi, **9 ta huquqni muhofaza qilish organlari orqali kelgan xizmat tekshiruvlari** o‘tkazish haqidagi xatlariga asosan natijasi o‘zlariga yuborildi, **5 ta xizmat tekshiruvlari** bo‘yicha rahbarlariga tegishli chora-tadbir belgilab olishlik uchun tegishli muddatli ko‘rsatma berildi.

**O‘rganish natijasida 3 ta holat bo‘yicha jami 10 nafar xodimlarga intizomiy jazo chorasi** va 1 ta holatda esa 3 nafar xodim bilan **mehnat shartnomasi bekor qilindi.**

Xizmat tekshiruvi natijasida budget va budgetdan tashqari mablag‘larni maqsadsiz va samarasiz ishlatalganlik holatlari aniqlangan va huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga barcha to‘plangan hujjatlar taqdim etildi.

Markaziy apparat, viloyat hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida jami 1058 nafar xodimlar tomonidan deklaratsiya arizalari to‘ldirildi, 4 nafar xodimlarda manfaatlar to‘qnashushi mavjudligi aniqlandi va belgilangan tartibda tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

### **Ko‘rib chiqish natijalari:**

**1.** Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi Binolardan foydalanish va kapital qurilish direksiysi tomonidan Toshkent shahridagi Tabiat resurslari vazirligining (*oldingi “Vodgeo” ilmiy-tadqiqot instituti ma’muriy binosi*) binosini qurilish-rekonstruksiya ishlari boyicha amalga oshirilgan pul mablaglari aylanmasi, qurilish-montaj ishlarning sifati hamda hajmlari yuzasidan o‘rganish o‘tkazildi.

O‘rganish yakuni bo‘yicha amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishida aniqlangan ma’lumotlar va unga tegishli asoslovchi hujjatlar nusxalari huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi o‘rinbosari nomida 08.02.2023-yil 02-01/8-55-son xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi.**

**2.** Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan Sanitar xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarga ish haqqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari uchun berilgan ssuda mablag‘larining ajratilishi va sarflanishi bo‘yicha o‘rganish o‘tkazildi.

Aniqlangan xato va kamchiliklar bo‘yicha ma’lumotnoma va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi o‘rinbosari nomida 06.03.2023-yil 02-01/6-73-son xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi.**

**3.** O‘zbekistan Respublikasi Tabiat resurslari vazirining 2023-yil 14-martdagi 27-x/s-son buyrug‘i bilan Tabiat resurslari vazirligi tomonidan Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi va “Toza hudud” DUKga ajratilgan mablag‘larning maqsadli ishlatalishi yuzasidan o‘rganildi.

Aniqlangan xato va kamchiliklar bo‘yicha ma’lumotnoma va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi o‘rinbosari nomida

10.07.2023-yil 02-01/9-2589-son xat bilan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi.

4. O‘zbekistan Respublikasi Tabiat resurslari vazirining 2023-yil 27-apreldagi 39-x-s-son buyrug‘i bilan Tabiat resurslari vazirligi tomonidan Qashqadaryo viloyati “Toza hudud” DUK faoliyati tahlil qilinib, amalga oshirilgan moliya-xo‘jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi, asosiy vositalarining bugungi kundagi holati va buxgalteriya hisobi yuritilishi birlamchi hujjatlar asosida o‘rganildi.

Aniqlangan xato va kamchiliklar hamda talon-tarojliklar tuzilgan bo‘yicha ma’lumotnomma va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi o‘rinbosari nomida 19.05.2023-yil 02-04/5-1164-sonli xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga taqdim etildi.**

5. O‘zbekistan Respublikasi Tabiat resurslari vazirining 2023-yil 15-maydagi 125-x-s-son buyrug‘i bilan Tabiat resurslari vazirligi tomonidan Surxondaryo viloyati boshqarmasi faoliyati tahlil qilinib, amalga oshirilgan moliya-xo‘jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi, asosiy vositalarining bugungi kundagi holati va buxgalteriya hisobi yuritilishi birlamchi hujjatlar asosida o‘rganildi.

Aniqlangan xato va kamchiliklar hamda talon-tarojliklar tuzilgan bo‘yicha ma’lumotnomma va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining nomidan 15.06.2023-yil 01-01/3-1909-son xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga taqdim etildi.**

6. O‘zbekistan Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2023-yil 13-iyuldaggi 192/1-son buyrug‘i bilan Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligining murojaatiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, fuqaro Karimov Ilxomjon Abduraximovich va Surxondaryo viloyati Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rtasida 2020-yil 21-fevral kuni tuzilgan 191205-000014-sonli “Davlat o‘rmon fondi uchastkalarini ijaraga berish haqida davlat xususiy sheriklik bitimi” qonuniyligi birlamchi hujjatlar asosida o‘rganildi.

Xizmat tekshiruvi jarayonida “ABDUXOLIQOV MUXAMMADALI” xususiy korxonasi tomonidan 2020-2023 yillar davomida ortiqcha 100 ga yer maydonidan foydalanilgan bo‘lsada, jami **160 mln so‘m ijara to‘lovi to‘lanmaganligi** hamda O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, fuqaro Karimov Ilxomjon Abduraximovich hamda Surxondaryo viloyati Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rtasida 2020-yil 21-fevralda 91205-000014-son bilan “Davlat o‘rmon fondi uchastkalarini ijaraga berish haqida davlat xususiy sheriklik Bitimi” bandlari talablari qo‘pol ravishda buzilganligi, davlat-xususiy

sherik va ijara beruvchi xo‘jalik tomonidan idoraviy nazorat umuman olib borilmaganligi, 94,0 hektar yer maydoni pistachilikni rivojlantirish maqsadida **investitsiya kiritish shartlari bajarilmaganligi**, I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan biznes reja amalda bajarilmaganligi aniqlandi.

Aniqlangan xato va kamchiliklar hamda talon-tarojliklar tuzilgan bo‘yicha ma’lumotnomha va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi o‘rinbosari N.Qudratov nomidan 25.07.2023-yil 02-01/8-3148-son xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi**.

7. O‘zbekistan Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2023-yil 6-iyuldaggi 182-son buyrug‘i bilan Surxondaryo viloyati, Termiz tumanida yashovchi fuqaro B.G‘anievning murojaatiga asosan, Surxondaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi faoliyatida qonuniyligi birlamchi hujjatlar asosida o‘rganildi.

Aniqlangan xato va kamchiliklar hamda talon-tarojliklar tuzilgan bo‘yicha ma’lumotnomha va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining o‘rinbosari J.Kazbekov nomidan 07.08.2023-yil 03-01/8-3580-son xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi**.

8. O‘zbekistan Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2023-yil 19-sentabrdagi 295-son buyrug‘i bilan Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani hududidagi Bulung‘ur o‘rmon bo‘limining ihota daraxtlari bilan qoplangan 16 hektar yer maydoni tuman hokimligi zahira yer fondiga qaytarilishda O‘rmon xo‘jaligi agentligi Jomboy davlat o‘rmon xo‘jaligi “Bulung‘ur” o‘rmon bo‘limi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasi xodimlarining xizmat vazifalari va mansab vakolatlaridan foydalangan holda noqonuniy xattiharakatlarini sodir etishi natijasida o‘rmon bilan qoplangan o‘rmon fondi yer maydonining qisqarilishiga va 16 hektar yer maydonidagi **535 dona** (505 dona qimmatbaho qayrag‘och va 33 dona o‘rik) daraxtlarning kesilishiga shart-sharoitlar yaratib bergen.

Aniqlangan xato va kamchiliklar hamda talon-tarojliklar tuzilgan bo‘yicha ma’lumotnomha va unga tegishli boshqa hujjatlar nusxasi huquqiy baho berish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi o‘rinbosari O.Qudratov nomidan 13.10.2023-yil 02-01/8-5683-son xat bilan **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etildi**.

9. O‘zbekistan Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2023-yil 30- noyabrdagi 389-son buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tizimidagi 7 ta davlat buyurtmachilari hamda ularda ishlovchi

xodimlarga tegishli (*ta'sischi yoki rahbari bo'lgan*) korxonalar o'rtasida 2022-yil va 2023-yilning o'tgan 10 oyi davomida 43 ta holatda 368,8 mln so'mlik shartnomalar rasmiylashtirilganligi oqibatida "Davlat xaridlari to'g'risidagi" Qonunning

46-moddasi talablari buzilganligini aniqlandi. O'rganish natijasida bir qancha jiddiy qonunbuzilish holatlari aniqlanib, o'rganish xulosasi va to'plangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga 22.12.2023-yil 02-01/8-769-son XDFU xat bilan yuborildi.

Xizmat tekshiruvi natijasida **9 ta holatda 9 mld 923 mln so'm mablag'larni maqsadsiz va samarasiz ishlatilganlik holatlari aniqlangan va huquqiy baho berish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga barcha to'plangan hujjatlar taqdim etildi.**

## **VII. 2024 yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar:**

**Birinchi**, vazirlik markaziy apparatida **ISO 37001:2016** faoliyatining barcha yo'naliishi bo'yicha "**Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi**" **xalqaro standartiga** muvofiqlik tizimini joriy etish hamda tegishli sertifikatga ega bo'lish.

**Ikkinci, ochiq ma'lumotlar** sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan axborotlar rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'limga tizimlashtirilgan holda joylashtirish.

**Uchinchi, jamoatchilik kengashi** a'zolari ishtiokida vazirlikning yarim yillik va yillik faoliyati sarhisobiga bag'ishlangan **jamoatchilik eshituvlarini** tashkil etish.

**To'rtinci, manfaatlar to'qnashuvi holatlari** yuzasidan qaror qabul qilish jarayonlaridagi xolislikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

**Beshinchi**, vazirlik tizim tashkilotlarida budget va budjetdan tashqari mablag'larning maqsadsiz saflanishi yuzasidan doimiy monitoringini olib borish hamda xavf-tahlili natijalariga asosan "**davlat audit dasturi**"ga kiritilgan **9 ta tizim tashkilotda** ichki audit nazorat tadbirlarini o'tkazish;

**Oltinchi**, Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan funksiyalarni to'liq raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish choralar ko'rish lozim.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
va ichki audit bo'limi boshlig'i  
B.Urunov**